

**BUDJET TASHKILOTLARIDA BUDJETDAN TASHQARI
MABLAG'LARNI SHAKLLANTIRISH VA ULARDAN FOYDALANISH
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

Ro'ziqulov Miraziz Abdulazizovich

Bank-Moliya Akademiyasi magistratura talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag'larning shakllanishi va ulardan foydalanish amaliyoti o'rganilgan. Mayjud muammolar tizimli tahlil qilinib, xalqaro tajriba asosida takomillashtirish yo'llari ishlab chiqilgan. AQSh, Germaniya va Janubiy Koreya tajribasi asosida moliyaviy shaffoflik, nazorat, raqamli boshqaruv va samaradorlik mezonlari tahlil etilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash, hisobdorlikni kuchaytirish va raqamlashtirish orqali ushbu tizimni samarali boshqarish mumkinligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: budjet tashkiloti, budjetdan tashqari mablag'lar, moliyaviy shaffoflik, nazorat, xalqaro tajriba, raqamli boshqaruv, audit.

Kirsh

Budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, davlat byudjetiga tushadigan yuklamani kamaytirish va ijtimoiy sohalarda xizmatlar sifatini oshirish zamonaviy davlat moliyasining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biridir. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy va institutsional islohotlar fonida budjet tashkilotlarining o'zini o'zi moliyalashtirish salohiyatini kuchaytirish, xususan, budjetdan tashqari mablag'lar institutini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Budjetdan tashqari mablag‘lar bu – davlat byudjetidan tashqari manbalar hisobiga shakllantiriladigan, byudjet tashkilotlari tomonidan bevosita o‘z faoliyati doirasida to‘plangan va sarflanadigan moliyaviy resurslardir. Ular odatda xizmat ko‘rsatishdan tushgan to‘lovlar, grantlar, homiylik mablag‘lari, ijaradan tushumlar va boshqa faoliyat natijalaridan shakllanadi. Bunday mablag‘lar nafaqat byudjet yukini kamaytiradi, balki tashkilotlarga qo‘shimcha moliyaviy imkoniyat yaratadi, ularning mustaqilligini ta‘minlaydi hamda xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston tajribasida budjetdan tashqari mablag‘lar asosan oliy ta‘lim muassasalarida kontrakt to‘lovlari, sog‘liqni saqlash sohasida pullik xizmatlar, madaniyat va sport muassasalarida esa ijara tushumlari va xayriya ko‘rinishida shakllanmoqda. Ushbu manbalar hajmi so‘nggi yillarda ortib bormoqda. Masalan, 2023-yil yakunlariga ko‘ra, yirik oliy ta‘lim muassasalari o‘rtacha 100–150 mlrd so‘mgacha budjetdan tashqari daromad shakllantirgan. Shunga qaramay, bu mablag‘larning foydalanish tartibi, nazorati, shaffofligi va hisobdorligi ko‘plab muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Bugungi kunda budjetdan tashqari mablag‘lardan foydalanishda strategik rejalashtirish yetishmaydi, mablag‘lar ko‘pincha joriy ehtiyojlarga yo‘naltiriladi, infratuzilmani modernizatsiya qilish, innovatsiyalarni joriy etish va inson kapitaliga sarmoya kiritish uchun zarur resurslar yetarlicha safarbar etilmayapti. Nazorat tizimining zaifligi, ochiqlikning past darajasi, ichki va tashqi auditning formal tusda olib borilishi, raqamli boshqaruvning joriy etilmaganligi ushbu tizimni samarali boshqarishga to‘sqinlik qilmoqda.

Xalqaro tajriba, xususan AQSh, Germaniya va Janubiy Koreya amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, budjetdan tashqari mablag'larni samarali boshqarish raqamlashtirilgan monitoring tizimlari, jamoatchilik nazorati, ochiq hisobotlar, mustaqil audit va samaradorlikka asoslangan indikatorlar orqali ta'minlanmoqda. Ular mablag'lardan strategik maqsadlarda foydalanishni, xizmatlar sifatini oshirishni va korrupsion xatarlarni kamaytirishni kafolatlaydi.

Shu bois, mazkur maqolada O'zbekiston budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag'larni shakllantirish va ulardan foydalanish amaliyoti chuqur o'rganiladi, mavjud muammolar tahlil qilinadi, xalqaro tajriba asosida takomillashtirish yo'llari ishlab chiqiladi. Bu orqali mamlakatimizda ijtimoiy sektorni moliyalashtirish mexanizmlarini isloh qilish, tashkilotlarning moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish va budjet tizimining barqarorligini ta'minlashga ilmiy asoslangan takliflar berish maqsad qilingan.

Adabiyotlar sharhi

Budjetdan tashqari mablag'larning iqtisodiy mohiyati, ularning davlat moliyasi tizimidagi o'rni va boshqaruv mexanizmlari masalasi xalqaro va milliy ilmiy adabiyotlarda turli yondashuvlar asosida yoritilgan. G'arb olimlari asarlarida ushbu mablag'lar asosan "off-budget funds" yoki "extrabudgetary resources" atamallari orqali izohlanadi va ularning davlat byudjetidan mustaqil ravishda moliyalashtiriladigan faoliyat uchun zarurligi alohida ta'kidlanadi. Jumladan, World Bank (2021) tadqiqotida budjetdan tashqari mablag'larning boshqaruvi va ularni ustidan nazorat mexanizmlari muhokama qilingan bo'lib, bu mablag'lar davlat moliyaviy siyosatining muhim vositasi sifatida e'tirof etiladi.

OECD (2022) tomonidan chop etilgan hisobotda davlat moliyasini boshqarishda budjetdan tashqari jamg'armalar muhim ahamiyat kasb etishi, ular orqali davlat xizmatlari sifatini oshirish, infratuzilma loyihalarini qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash mumkinligi ko'rsatib o'tilgan. Germaniyada bu mablag'lar "Sondervermögen" (maxsus jamg'armalar) shaklida rasmiylashtiriladi va Bundesrechnungshof tomonidan qat'iy auditorlik nazoratida bo'ladi. Koreya Respublikasida esa dBrain nomli raqamli byudjet va buxgalteriya tizimi orqali ushbu mablag'lar real vaqt rejimida boshqariladi (MOEF Korea, 2023).

O'zbekiston adabiyotlarida budjetdan tashqari mablag'lar masalasi nisbatan yangi ilmiy yo'nalish bo'lib, bu borada dastlabki ilmiy tadqiqotlar Ostonsqulov A. (2021), Qodirova M. (2022) va boshqa mualliflar tomonidan olib borilgan. Ostonsqulov A. tomonidan oliy ta'lim muassasalarida budjetdan tashqari tushumlarning shakllanish manbalari va ulardan foydalanish tartibi tahlil qilingan bo'lib, ushbu resurslarning boshqaruvida ochiqlik, samaradorlik va javobgarlik mexanizmlarini kuchaytirish taklif etilgan. Qodirova M. esa sog'liqni saqlash tizimidagi budjetdan tashqari xizmat turlarini iqtisodiy jihatdan tahlil qilgan va ularning narxlari shakllanishida strategik yondashuv zarurligini asoslab bergan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Hisob palatasi va boshqa davlat idoralari tomonidan chop etilgan yillik hisobotlarda budjetdan tashqari mablag'larning tarkibi, ularning taqsimlanishi va yo'naltirilishi bo'yicha qisqacha statistik ma'lumotlar keltirilgan bo'lsa-da, ularning tahlili, natijadorligi va samaradorligi bo'yicha chuqur ilmiy yondashuvlar yetarli darajada mavjud emas.

Shunday qilib, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, budjetdan tashqari mablag'lar muammosini kompleks tarzda – iqtisodiy, huquqiy va boshqaruv aspektlaridan o'rganishga ehtiyoj mavjud. Ushbu maqola aynan shu bo'shliqni to'ldirishga, O'zbekiston amaliyoti va xalqaro tajriba asosida ushbu tizimni takomillashtirishga qaratilgan.

Metodologiya

Tadqiqotda deskriptiv, solishtirma va tahliliy yondashuvlar qo'llanildi. O'zbekiston Respublikasida 2020–2024 yillarda budjetdan tashqari mablag'lar shakllanishi bo'yicha statistik ma'lumotlar tahlil qilindi. Shuningdek, AQSh, Germaniya va Janubiy Koreya tajribasi asosida xalqaro taqqoslama o'tkazildi. Normativ-huquqiy hujjatlar kontent-analiz qilindi. Ekspert bahosi metodi orqali amaliyotdagi mavjud muammolar aniqlanib, tavsiyalar ishlab chiqildi.

Natijalar

Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag'larning shakllanishi va ulardan foydalanish bo'yicha mavjud amaliyot nisbatan faol, biroq tizimlashtirilmagan, strategik rejalashtirishdan yiroq va shaffoflik darajasi past ekanligi aniqlandi. Tahlil 2020–2024 yillar oralig'idagi yillik ma'lumotlar asosida amalga oshirildi va quyidagi asosiy natijalarga erishildi.

Birinchidan, budjetdan tashqari mablag'lar shakllanishi asosan ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport sohalarida faol amalga oshirilmoqda. Eng katta ulush oliy ta'lim muassasalariga to'g'ri keladi – ularning budjetdan tashqari daromadlarining asosiy manbasi talabalar tomonidan to'lanadigan kontrakt

to'lovlari hisoblanadi. 2023-yil yakunlariga ko'ra, yirik OTMlarda o'rtacha tushum 120–150 mlrd so'mni tashkil etgan.

Ikkinchidan, sog'liqni saqlash tizimida budjetdan tashqari tushumlar diagnostika xizmatlari, laboratoriya tahlillari, tibbiy maslahatlar va boshqa pullik xizmatlar evaziga shakllanmoqda. Masalan, Toshkent shahri va Andijon viloyatidagi yirik tibbiyot birlashmalari tomonidan yillik tushum o'rtacha 10–15 mlrd so'mni tashkil qilmoqda.

Uchinchidan, ushbu tushumlar qanday ishlatilayotgani tahlil qilinganda, ularning salmoqli qismi – 50–60 foizi xodimlarga ustama va mukofot to'lovlariga yo'naltirilgani ma'lum bo'ldi. Aksincha, infratuzilmani rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, innovatsion faoliyatni moliyalashtirish kabi strategik yo'nalishlarga ajratilayotgan mablag'lar ulushi 15–20% atrofida qolmoqda.

To'rtinchidan, budjetdan tashqari mablag'larning shakllanishi va sarflanishi ustidan nazorat yetarli emas. Aksariyat tashkilotlarda ichki audit bo'limlari mavjud bo'lsa-da, ular ko'proq formal faoliyat yuritadi. Tashqi audit esa tanlab asosda amalga oshiriladi, yillik hisobotlar ommaga ochiq taqdim etilmaydi.

Quyida 2023-yil holatiga ko'ra O'zbekistonning ayrim budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag'lar shakllanishi va ularning foydalanish yo'nalishlari bo'yicha umumlashtirilgan tahliliy jadval keltirilgan:

1-jadval.

O'zbekiston budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag'lar shakllanishi va foydalanish strukturasining tahlili (2023-yil)

Manba: Moliya vazirligi, Oliy ta'lim va Sog'liqni saqlash vazirligi ochiq hisobotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Tashkil ot turi	Yillik tushum (mlrd so‘m)	Asosiy manbalar	Foydalanish yo‘nalishlari (%)
Oliy ta‘lim muassasalari	120– 150	Kontrak t to‘lovlari, grantlar	60% ustama, 20% infratuzilma, 10% tadqiqot, 10% boshqa
Tibbiyot muassasalari	10–15	Pullik xizmatlar, ijaralar	55% ustama, 25% dori-darmon, 10% texnika, 10% boshqa
Madani yat muassasalari	1–3	Ijara, chiptalar, xayriya	40% ustama, 30% tadbirlar, 20% ta‘mir, 10% boshqa

Ushbu jadval shuni ko‘rsatadiki, tashkilotlar darajasida tushumlar shakllanish manbalari aniq bo‘lsa-da, ulardan foydalanish asosan joriy xarajatlarga yo‘naltirilmoqda. Bu esa moliyaviy resurslarning uzoq muddatli natijadorlikka xizmat qilishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Beshinchidan, xalqaro tajriba bilan taqqoslanganda, O‘zbekistonda raqamli boshqaruv tizimlarining yetishmasligi, ochiq ma‘lumot bazalarining mavjud emasligi va samaradorlik indikatorlarining joriy etilmaganligi tizimni zaiflashtiruvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Masalan, AQShda USAspending.gov orqali har bir mablag‘ning sarfi ochiq taqdim etiladi, Koreyada

dBrain platformasi orqali har bir xarajat real vaqt rejimida nazorat qilinadi. O‘zbekistonda esa bunday mexanizm mavjud emas.

Natijada, mavjud holat shuni ko‘rsatadiki, budjetdan tashqari mablag‘larning hajmi yildan-yilga ortib borayotgan bo‘lsada, ularning samarali boshqarilishi, hisobdorlik, strategik rejalashtirish va shaffoflik darajasi yetarli emas. Bu esa tizimni takomillashtirish bo‘yicha aniq mexanizmlar ishlab chiqishni talab etadi.

Muhokama

Tadqiqot natijalari asosida aniqlangan holatlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag‘lar institutining mavjudligi moliyaviy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo‘lsada, amaldagi tizim uni samarali boshqarish imkonini yetarli darajada bermayapti. Mablag‘larning shakllanishi, ulardan foydalanish, nazorat qilish va hisobdorlik mexanizmlarida muhim muammolar mavjud bo‘lib, ularning aksariyati tizimli yondashuv yetishmasligidan dalolat beradi.

Birinchi muammo – budjetdan tashqari mablag‘larning shakllanishida barqarorlik va diversifikatsiya yetishmasligidir. 2023-yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, oliy ta’lim muassasalarining budjetdan tashqari tushumlarining 85–90 foizgacha bo‘lgan qismi talabalar tomonidan to‘lanadigan kontrakt to‘lovlariga to‘g‘ri kelmoqda. Masalan, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bu ko‘rsatkich 140 mlrd so‘mni tashkil qilgan, biroq grantlar, xizmat ko‘rsatish yoki xususiy sektor bilan hamkorlik hisobiga tushgan mablag‘lar jami tushumning atigi 10–15 foizini tashkil etgan. Bu holat moliyalashtirish xavfini oshiradi, chunki bunday tushumlar mavsumiy va beqaror xarakterga ega.

Ikkinchi muammo – mablag‘lardan foydalanishda strategik yondashuv yetishmasligi. Tahlil natijalariga ko‘ra, oliy ta‘lim va sog‘liqni saqlash muassasalarida budjetdan tashqari tushumlarning 50–60 foizgacha bo‘lgan qismi ustama, mukofot va boshqa joriy xarajatlarga yo‘naltirilmoqda. Bu esa uzoq muddatli infratuzilmaviy loyihalar, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki raqamli texnologiyalarni joriy etish kabi ustuvor yo‘nalishlar uchun yetarli resurslar ajratilmayotganini ko‘rsatadi. Masalan, 2023-yilda Andijon davlat tibbiyot instituti 13,4 mlrd so‘m tushum shakllantirgan bo‘lsa-da, shundan 7,6 mlrd so‘mi rag‘batlantirish xarajatlariga sarflangan, innovatsion loyiha va infratuzilma modernizatsiyasiga atigi 1,2 mlrd so‘m yo‘naltirilgan.

Uchinchi muammo – nazorat va hisobdorlik tizimining zaifligidir. Ko‘pchilik tashkilotlarda ichki audit bo‘limlari mavjud bo‘lsada, ularning faoliyati ko‘proq formal tusda bo‘lib, tahliliy tahlil yoki risklarni aniqlash amaliyoti yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan. Tashqi audit esa faqat tanlab olingan tashkilotlar bo‘yicha amalga oshiriladi. Bundan tashqari, yillik hisobotlarning aksariyati yopiq holatda qolmoqda. 2023-yilda 15 ta yirik davlat OTMlarining faqat 3 tasida budjetdan tashqari tushumlar va xarajatlar bo‘yicha ochiq moliyaviy hisobot e‘lon qilingan.

To‘rtinchi muammo – raqamli boshqaruv tizimlarining joriy etilmaganligidir. Bugungi kunda O‘zbekistonning aksariyat budjet tashkilotlari budjetdan tashqari mablag‘larni oddiy Excel fayllari yoki qo‘lda yuritiladigan jadvallar orqali boshqarmoqda. Bu esa operativ nazorat va tahlilni imkonsiz qiladi. Holbuki, Janubiy Koreyada barcha budjet tashkilotlari **dBrain** tizimi orqali barcha tushum va xarajatlarni real vaqt rejimida monitoring qiladi. AQShda esa

SJIF:5.219

USAspending.gov orqali nafaqat Kongress, balki fuqarolar ham har bir sentning sarfini kuzatib borish imkoniyatiga ega.

Beshinchi muammo – samaradorlik va natijadorlik mezonlarining joriy etilmaganligidir. Mablag‘lar faqat moliyaviy o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari asosida baholanmoqda, lekin ularning ijtimoiy yoki institutsional natijadorligi o‘lchanmayapti. Xalqaro tajribada, masalan Germaniyada, har bir budjetdan tashqari loyiha uchun “Effizienzbericht” (samaradorlik hisobotlari) tayyorlanadi, unda erishilgan natijalar, foydalanuvchilar soni, ta’sir ko‘lami va moliyaviy koeffitsientlar ko‘rsatiladi. Bunday yondashuv O‘zbekistonda mavjud emas.

Yuqoridagi muammolar shuni ko‘rsatadiki, budjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha samarali boshqaruv, rejalashtirish, nazorat va hisobdorlik tizimini shakllantirish uchun konseptual o‘zgarishlar zarur. Xalqaro tajriba asosida raqamli monitoring, ochiq hisobot tizimi, jamoatchilik ishtirokini kengaytirish, samaradorlik indikatorlarini ishlab chiqish va audit mexanizmlarini mustahkamlash orqali mavjud holatni sezilarli darajada yaxshilash mumkin.

Ushbu tahlillar asosida keyingi qismda taklif qilinadigan islohotlar milliy sharoitga moslashgan, amaliyotga tatbiq etish mumkin bo‘lgan yondashuvlar bo‘lib xizmat qiladi. Shu orqali budjet tashkilotlarining moliyaviy mustaqilligi kuchayadi, resurslardan foydalanishning samaradorligi ortadi va davlat moliyaviy siyosatining barqarorligi ta’minlanadi.

Xulosa

O‘zbekiston Respublikasida budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda budjetdan tashqari mablag‘larning ahamiyati ortib bormoqda. Ushbu maqolada o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, bu mablag‘lar

muassasalarning xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va raqobatbardoshligini oshirishda muhim resurs sifatida xizmat qiladi. Biroq mavjud amaliyotda ularning shakllanishi, foydalanilishi va nazorat qilinishi bo'yicha tizimli kamchiliklar saqlanib qolmoqda.

Tahlil natijalariga ko'ra, budjetdan tashqari mablag'lar asosan oliy ta'lim va sog'liqni saqlash tizimida kontrakt to'lovlari va pullik xizmatlar orqali shakllanadi. Ushbu mablag'larning katta qismi xodimlarga ustama to'lash yoki joriy ehtiyojlarga sarflanmoqda, bu esa uzoq muddatli rivojlanish, innovatsion loyihalar va raqamlashtirish uchun resurslar yetishmasligiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, ochiqlik va shaffoflik darajasi past, audit va jamoatchilik nazorati esa cheklangan.

Xalqaro tajribalar asosida budjetdan tashqari mablag'larni boshqarishda bir necha ustuvor yo'nalishlar aniqlandi: diversifikatsiyalangan moliyalashtirish manbalari, samaradorlikni baholovchi indikatorlar, raqamli boshqaruv tizimlari, ochiq hisobotlar va kuchli audit nazorati. Masalan, AQShda USAspending.gov, Koreyada dBrain kabi platformalar orqali moliyaviy resurslar real vaqt rejimida boshqariladi, Germaniyada esa samaradorlik hisobotlari majburiy tartibda yuritiladi.

O'zbekiston amaliyotida ham ushbu mexanizmlarni joriy etish orqali budjetdan tashqari mablag'lar tizimini takomillashtirish mumkin. Xususan, elektron monitoring tizimini yaratish, har yili samaradorlik hisobotlarini joriy qilish, jamoatchilik ishtirokini kengaytirish va moliyaviy boshqaruvni normativ asosda mustahkamlash orqali bu resurslarning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini

sezilarli darajada oshirish mumkin. Bu esa budget tashkilotlarining moliyaviy mustaqilligi va davlat moliyasining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти. 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли Фармон «2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида». – Тошкент, 2022.
2. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги. Давлат бюджети ва бюджетдан ташқари жамғармалар таҳлили. – Тошкент: Молия нашриёти, 2023. – 135 б.
3. Ostonqulov A. Oliy ta'lim muassasalarining byudjetdan tashqari mablag'larini boshqarishning tashkiliy-huquqiy asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. – 96 b.
4. Qodirova M. Sog'liqni saqlash tizimida pullik xizmatlar va budjetdan tashqari mablag'lar iqtisodiyoti. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali. – 2022. – №3. – B. 45–53.
5. Бурков В.Н. Механизмы управления внебюджетными средствами в сфере государственного сектора. – Москва: Финансы и статистика, 2020. – 224 с.
6. World Bank. Extra-Budgetary Funds: Management and Oversight. – Washington D.C., 2021. – 146 p.
7. OECD. Managing Public Money: Government Financial Management Systems. – Paris: OECD Publishing, 2022. – 182 p.



8. Korean Ministry of Economy and Finance. Digital Budget and Accounting System (dBrain): Overview and Reforms. – Seoul, 2023. – 72 p.
9. Bundesministerium der Finanzen. Sondervermögen des Bundes: Bericht 2023. – Berlin, 2023. – 87 S.
10. USAspending.gov. Federal spending database. – Accessed: 2024. – [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://www.usaspending.gov>.